

**JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKDAN
FOYDALANISH: SOHA KESIMIDAGI TAHLIL VA INSTITUTSIONAL
MODELLASHTIRISH**

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu,f,d.

Saidov Sharofiddin Abdug'aniyevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18361832>

Annotatsiya. Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini qo'llashning ustuvor yo'nalishlari sohaviy kesimda tahlil qilinadi hamda ularni institutsional modellashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori DXShning qo'llanish chegaralarini belgilash, davlatning eksklyuziv vakolatlari saqlanadigan funksiyalar bilan xususiy sektor samarali jalb etilishi mumkin bo'lgan segmentlarni normativ va boshqaruv mezonlari asosida ajratishga qaratilgan. Xususan, "Safe City" va videokuzatuv infratuzilmasi, transport va yo'l harakati xavfsizligi yechimlari, ko'cha yoritish va muhandislik-kommunikatsiya tizimlari, favqulodda vaziyatlar bo'yicha xabardor qilish platformalari, ob'ekt xavfsizligi va xususiy qo'riqlash, kiberxavfsizlik hamda servis-logistika xizmatlari yo'nalishlarida DXSh modeli ko'rib chiqiladi. Maqolada risklarni taqsimlash, shartnomaviy dizayn, KPI/SLA ko'rsatkichlari, davlat nazorati, ma'lumotlar himoyasi va korrupsiyaga qarshi komplaens kabi institutsional "tayanchlar"ning sohaviy loyihalardagi o'rni asoslanadi. Yakunda DXSh orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashning barqaror institutsional arxitekturasini hamda amaliy tatbiq mexanizmlariga doir xulosalar va takliflar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik; jamoat xavfsizligi; sohaviy tahlil; institutsional model; Safe City; transport xavfsizligi; kiberxavfsizlik; risklarni taqsimlash; KPI/SLA; komplaens.

Аннотация. В статье представлен отраслевой анализ направлений применения государственно-частного партнёрства (ГЧП) в системе обеспечения общественной безопасности и раскрываются подходы к институциональному моделированию соответствующих механизмов. Исследование сосредоточено на определении пределов применимости ГЧП, разграничении функций, относящихся к исключительной компетенции государства, и сегментов, где участие частного сектора способно повысить эффективность и качество услуг. Рассматриваются проекты «Safe City» и инфраструктура видеонаблюдения, решения в области транспортной и дорожной безопасности, системы уличного освещения и инженерно-коммунальной инфраструктуры, платформы оповещения при чрезвычайных ситуациях, безопасность объектов и частная охранная деятельность, кибербезопасность, а также сервисно-логистические услуги. Анализируются институциональные элементы отраслевых проектов ГЧП: распределение рисков, договорный дизайн, KPI/SLA, государственный контроль, защита данных и антикоррупционный комплаенс. В заключении сформулированы выводы и предложения по формированию устойчивой институциональной архитектуры ГЧП для обеспечения общественной безопасности.

Ключевые слова: *государственно-частное партнёрство; общественная безопасность; отраслевой анализ; институциональная модель; Safe City; транспортная безопасность; кибербезопасность; распределение рисков; KPI/SLA; комплаенс.*

Abstract. *This article provides a sector-based analysis of how public–private partnerships (PPPs) can be applied within public safety systems and proposes approaches to institutional modelling of such mechanisms. The study clarifies the boundaries of PPP use by distinguishing functions that remain within the state’s exclusive mandate from segments where private-sector involvement can improve efficiency and service quality. Key application areas reviewed include “Safe City” and video surveillance infrastructure, transport and road safety solutions, public lighting and municipal engineering systems, emergency alert and preparedness platforms, facility protection and private security services, cybersecurity, and service/logistics support. The paper further examines core institutional pillars of sectoral PPP projects, including risk allocation, contract design, performance management tools (KPIs/SLAs), public oversight, data protection, and anti-corruption compliance. The article concludes with policy-oriented recommendations for building a sustainable institutional architecture for PPP-based public safety initiatives.*

Keywords: *public–private partnership; public safety; sectoral analysis; institutional model; Safe City; transport safety; cybersecurity; risk allocation; KPIs/SLAs; compliance.*

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi tobora ko‘proq infratuzilma, raqamli texnologiyalar va servis xizmatlarining uzluksiz ishlashiga tayanmoqda. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari “xavfsizlikni faqat ma’muriy resurslar bilan boshqarish” modelidan “hamkorlik asosidagi xizmatlar ekotizimi”ga o‘tishda muhim instrument sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq DXShni xavfsizlik sohasida qo‘llash masalasi vakolatlarning chegarasi, natijadorlikni o‘lchash (KPI/SLA), davlat nazorati, shaffoflik, manfaatlar to‘qnashuvi va ma’lumotlar himoyasi kabi huquqiy-institutsional masalalarni ham dolzarb qiladi. Mazkur maqola ana shu yo‘nalishlarni sohaviy kesimda tahlil qilib, samarali institutsional yechimlar modelini asoslashga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni¹ qabul qilinishi jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida konsepsiyada belgilangan vazifalar fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yanada qulay sharoit yaratish, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz turizm”, “Obod va xavfsiz mahalla” konsepsiyalarini amalga oshirish maqsadida zamonaviy texnika va texnologiyalar, jalb etilayotgan kuch va vositalarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan markazlashgan yangi tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-noyabrda PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Lex.uz. (Murojaat sanasi: 11.06.2024).

Shuningdek, Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyati, xususan, transport xavfsizligi, turizm xavfsizligi, ommaviy tadbirlar, favqulodda vaziyatlar sharoitida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash va shu kabi boshqa dolzarb mavzularda ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, patrul-post, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, xavfsiz turizm, transport xavfsizligi faoliyati yo'nalishlari bo'yicha malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta'minlashning mustahkam, zamon talablariga moslashuvchan bo'lgan samarali mexanizmini yaratish, o'z navbatida, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashning soha va usullari tahlil etilishini taqozo qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik faoliyatidan keng foydalanish borasida mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining bir qator olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan bo'lib, jumladan: K.A.Antonova, Ye.V.Gorchakova, P.Snelson, Ye.Korovin, M.Pazdnikov, V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko, V.A.Korolevlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan².

Ilmiy adabiyotlarda olimlarning davlat-xususiy sheriklikni tashkil etish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlari keltirilgan. Xususan, iqtisodchi olim K.A.Antonova "Davlat-xususiy sherikchiligi Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida" nomli asarida davlat-xususiy sheriklikni – davlat va biznes o'rtasida davlat boshqaruvi idoralari va xususiy tuzilmalar orasida shartnoma asosida amalga oshiriluvchi institutsional tashkiliy ittifoq deb ataydi³.

Ye.V.Gorchakova esa "davlat-xususiy sheriklik – bu, davlat idoralari va xususiy biznesning ittifoqi, uning maqsadi – iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan tortib butun mamlakat yoki uning alohida hududlari bo'ylab xizmatlar ko'rsatishgacha ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni yaratish va rivojlantirish", deb qayd etadi⁴. P.Snelson esa "davlat-xususiy sheriklik – bu, korxona faoliyatini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan xatar va foydalarni baham ko'rish maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar" deb uqtirib o'tadi⁵. Ye.Korovin tadqiqotlariga asoslanib bergan ta'rifida esa "davlat-xususiy sheriklik – davlat va xususiy sektor o'rtasida o'rta

² Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. — М.: Дело, 2010. С.120.; Горчакова Е.В. Государственно-частное партнерство – новая парадигма России, Вестник СамГУ, 2011 №1/1 (82).; Снельсон П. Государственно-частные партнерства в странах с переходной экономикой. URL: <http://www.ebrd.com>.; Коровин Е. Кредитный риск проектов частно-государственного партнерства и механизмы поддержки. Выступление на круглом столе «Федеральные инструменты поддержки инвесторов» 10 октября 2006 г. URL: regionalistica.ru/project/investproject/fed_instr.; Паздников М. Государственно-частное партнерство: суть и понятие. URL: <http://politmanagement.ru>.; Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. — М.: ГУ-ВШЭ, 2010.; Джуманиязов Умрбек Ильхамович, "давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бoshqaruvi ривожлантиришининг айрим назарийуслубий масалалари", "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. 2017 йил № 3, майиюнь, 9-бет.

³ Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. — М.: Дело, 2010. С.120.

⁴ Горчакова Е.В. Государственно-частное партнерство – новая парадигма России, Вестник СамГУ, 2011 №1/1 (82).

⁵ Снельсон П. Государственно-частные партнерства в странах с переходной экономикой. URL: <http://www.ebrd.com>.

muddatli yoki uzoq muddatli hamkorlik sifatida bo‘lib, uning doirasida siyosiy vazifalar bir necha tarmoqlarning tajribasini birlashtirish hamda moliyaviy xatarlar va foydalarni taqsimlash asosida hal qilinadi” deb ta’kidlaydi⁶.

M.Pazdnikov esa “davlat-xususiy sheriklik – davlat va biznes sherik bo‘lgan g‘arbiy bozor iqtisodiyotining mahalliy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, sheriklar tengdirlar. Shuning uchun “Davlat xususiy sherikchiligi” atamasi qo‘llaniladi” deb ta’riflaydi⁷. Shuningdek, V.G. Varnavskiy, A.V. Klimenko va V.A. Korolev hammuallifligidagi “Davlat-xususiy hamkorligi. Nazariya va amaliyot” nomli o‘quv qo‘llanmasida “davlat-xususiy sheriklik – davlat va jamoatchilik mulki obyektlari, shuningdek, keng doiradagi iqtisodiy faoliyat turlarida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va jamoatchilik idoralari, muassasa va korxonalari tomonidan ijro etiluvchi va ko‘rsatiluvchi xizmatlarga nisbatan davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning yuridik jihatdan mustahkamlangan shaklini namoyon etadi” deb, ta’kidlashadilar⁸.

Xususan, mamlakatimiz tadqiqotchilaridan U.I.Djumaniyazov “Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy uslubiy masalalari”ga bag‘ishlangan maqolasida “davlat-xususiy sheriklik – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun o‘ta ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ahamiyatga molik obyektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma’nodagi o‘zaro manfaatli aloqalaridir” deb ta’riflaydi⁹.

Albatta, jamoat xavfsizligini ta’minlash bevosita davlatning strategik vazifasi hisoblanadi. Davlat xavfsizligi sohasini modernizatsiya qilish bugungi kunda boshqa tarmoqlar kabi tizimda xususiy kapitalni talab qiladi. Shu munosabat bilan davlat-xususiy sheriklik jamiyat xavfsizligini ta’minlash, sohani texnik jihozlash, joylarda sifat ko‘rsatkichlari va raqamli tizimni yaxshilash bo‘yicha innovatsion tajribalarni joriy etish mexanizmiga aylanadi.

Davlat-xususiy sheriklik ancha moslashuvchan huquqiy institut bo‘lib, davlat infratuzilmasining turli sohalarida loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, huquqning «man etilmagan har qanday harakat amalga oshirilishi mumkin» degan prinsipi ham mavjud.

⁶ Коровин Е. Кредитный риск проектов частно-государственного партнерства и механизмы поддержки. Выступление на круглом столе «Федеральные инструменты поддержки инвесторов» 10 октября 2006 г. URL: regionalistica.ru/project/investproject/fed_instr.

⁷ Паздников М. Государственно-частное партнерство: суть и понятие. URL: <http://politmanagement.ru>.

⁸ Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королёв В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. — М.: ГУ-ВШЭ, 2010.

⁹ Джуманиязов Умрбек Ильхамович, “davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy uslubiy masalalari”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2017 yil № 3, mayiun, 9-bet.

Bundan anglashiladiki, milliy qonunchiligimizda jamoat xavfsizligi sohasida ham davlat-xususiy sheriklikni tashkil etish bo'yicha biron bir ta'qiq mavjud emas¹⁰.

F.S.Atamuratova kishilik jamiyati uchun yondosh sohalardan biri – sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni o'rganar ekan, «bu borada ijtimoiy sheriklik bitimlari mehnat jamoalari, ish beruvchilar va sog'liqni saqlash sohasidagi davlat organlarining manfaatlarini hisobga olishga imkon beradigan uch tomonlamalik amaliyot – ya'ni, tripartizm, ushbu vazifani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanayotgani»ni qayd etadi¹¹.

Jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning birlamchi huquqiy asoslari yaratildi va amalga joriy qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 7 dekabrda PQ-4913-son Qarori, «O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 29 noyabrda PF-27-son Farmoni shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2021 yil 21 aprelda 232-son Qarori asosida Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida 2021 yil 1 martdan boshlab mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlariga avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalarini buzilganligini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish huquqi berildi. Mazkur qarorning 4-bandiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga tegishli maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidabuzarliklaridan undirilgan jarima summasi ishga tushirilgan kundan boshlab 1 yil davomida 50 foizi, ishga tushirilganidan 1 yil o'tgandan so'ng 25 foizi – tadbirkorlik subyekti hisobiga yo'naltirilishi belgilab berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2021 yil 20 sentabrda 588-son Qarori asosida fuqarolar yig'inlarida tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning mulkiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish maqsadida barpo etilgan ayrim «Jamoatchilik nazorati maskanlari»ni eksperiment tariqasida videokameralar o'rnatish sharti bilan, tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berib, ular negizida «Elektron kuzatuv maskanlari» faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi. Mazkur qarorning 3-bandiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga beriladigan maskanlar va ularning binolari atrofidagi yer uchastkalarining 6 kvadrat metr maydonigacha «Elektron kuzatuv maskanlari»ni joylashtirish uchun, qolgan qismi tadbirkorlik faoliyatini yuritish

¹⁰ Кўлдошев Н., Ўзбекистонда жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш / "Экономика и социум" №1(104)-2 2023 www.iupr.ru /<https://cyberleninka.ru/article/n/>

¹¹ Ф.С.Атамуратова. Соғлиқни сақлаш соҳасида давлат-хусусий шериклигининг ўзига хос хусусиятлари / Коллектив монография. Ўзбекистонда ижтимоий шериклигининг моделлари: ҳозирги ҳолати ва истиқболлари. –Тошкент: Shafoat Nur Fayz, 2020. 197-б. URL: https://www.researchgate.net/publication/348199993_uzbekistonda_iztimoiy_seriklikning_modellari_ozirgi_olati_va_istikbollari/

uchun besh yil muddatga ijara to'lovining «nol» stavkasi asosida ijaraga berilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, tashkilotlar jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun o'z resurslarini birlashtirishga ikki tomonlama manfaaddordir. Bundan nafaqat xususiy sektor, balki davlat ham manfaaddor.

Ye.V.Yegorov, I.S.Minina davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri «Xususiy hamkorlar asosiy xavf-xatarlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligi sababli loyihani amalga oshirishga ishtiyoqi yo'q»¹² deb hisoblaydilar. Albatta, ushbu fikrga qo'shilgan holda, ta'kidlash mumkinki, mazkur sohani jadal rivojlantirish va xususiy investorlarni keng jalb qilishda qonunchilikka davlat-xususiy sheriklikning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlashning samarali tizimlarini kiritish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

E'tirof etish kerakki, jamoat xavfsizligi masalasi davlatning siyosiy strategik vazifasi hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash yaxlit tizim sanalib, u davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan, doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Fikrimizcha, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashning soha va usullarini tahlil etish, mazkur sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunida davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

➤ iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlash;

➤ davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;

➤ mavjud ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga, tiklashga, undan foydalanishga, uni saqlashga ko'maklashish;

➤ ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

➤ davlat xizmatlari sifatini yaxshilash va ulardan erkin foydalanishni kengaytirish;

➤ xususiy sektorning moliyaviy mablag'larini, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish;

➤ davlat-xususiy sheriklikning institutsional-huquqiy asoslarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish¹³.

¹² E.B.Егоров, И.С.Минина. Правовое регулирование государственночастного партнерства в России и за рубежом.<https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-gosudarstvennochastnogo-partnerstva-v-rossii-i-za-rubezhom/viewer>

¹³ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-son "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/537/3113-son; 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.06.2022-y.,

Bugungi kunda davlat xususiy sheriklik asosida mamlakatimizda sogʻliqni saqlash, oliy, oʻrta-maxsus, oʻrta va maktabgacha taʼlim, yoʻl harakatini tashkil etish va boshqa bir qator sohalarda amalga oshirib kelinmoqda.

Ushbu davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan kelib chiqib, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini taʼminlashning qaysi sohalarida amalga oshirish mumkin?

Huquq-tartibotni yanada mustahkamlash va jinoyatchilikning yangi koʻrinishlariga qarshi kurashish zarurati mamlakatimizda jamoat xavfsizligini taʼminlash boʻyicha ustuvor yoʻnalishlarni belgilab olishni talab etadi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, jamoat xavfsizligini taʼminlashning quyidagi yoʻl-larini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish samarali boʻlishi mumkin:

➤ transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni taʼminlash tizimini yanada takomillashtirish;

➤ yoʻl harakatini tashkil etishda vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining faoliyatini va oʻzaro hamkorligini tashkil etish;

➤ davlat-xususiy sheriklik asosida yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash tizimini va yoʻl infratuzilmasini takomillashtirish;

➤ tranzit va davlat ichki transport oqimi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutgan holda, respublika va mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan yoʻllar tizimini rivojlantirish;

➤ transport va piyodalarning harakatni toʻxtatishi va boshlashi toʻgʻrisida ogohlantirishning zamonaviy signal beruvchi tizimlarini joriy etish, piyodalar uchun yangi turdagi oʻtish joylarini tashkil etish, yoʻl infratuzilmasini kompleks takomillashtirish;

➤ jamoat va maxsus transport uchun alohida harakatlanish yoʻl polosasi va zamonaviy velosiped yoʻllari tashkil etish;

➤ aholiga ehtimoliy yoki sodir boʻlgan favqulodda vaziyatlar hamda yongʻinlar toʻgʻrisida xabar berish va maʼlumot yetkazish tizimini yanada takomillashtirish;

➤ tungi vaqtlarda aholi yashash punktlarining yoritilishi va video kuzatuv qamrovini kengaytirish kabilar.

Davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini taʼminlashning bir qancha sohaları mavjud. Bu sohalar davlat va xususiy sektor oʻrtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, resurslarni optimal tarzda foydalanish va xavfsizlikni yaxshilashda muhim rol oʻynaydi. Bizningcha, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini taʼminlashning asosiy sohaları sifatida quyidagilarni keltirib oʻtish mumkin:

birinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida kiber xavfsizlikni taʼminlash samaradorligini oshirish;

ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish;

uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida transport xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish;

to'rtinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida yong'in xavfsizligini ta'minlash;

beshinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat joylarida xavfsizlikni samarali ta'minlash;

oltinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida favqulodda vaziyatlarni oldini olish tizimini rivojlantirish;

yettinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida video kuzatuv va monitoring qilish samaradorligini oshirish;

sakkizinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat tartibini saqlash tizimini rivojlantirish;

to'qqizinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida hududiy va mahalliy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirish;

o'ninchinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida ma'lumotlarni boshqarish va himoya qilish samaradorligini oshirish.

Ushbu yo'nalishlarni tahlil qilib chiqamiz.

Darhaqiqat, bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlashning asosiy sohalaridan biri *kiber xavfsizlik* hisoblanib, mazkur sohada xususiy sektor tomonidan taqdim etiladigan kiber xavfsizlik yechimlari va xizmatlar, ma'lumotlarning himoyasi va kiber hujumlarga qarshi choralarni tatbiq etish, bu boradagi huquqiy normalarni ¹⁴ takomillashtirish muhim masalalardan biridir. Xususan, aholi o'rtasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida yirik IT-korxonalarni jalb qilgan holda davlat xususiy sheriklik mexanizmlarini tashkil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimizda *sog'liqni saqlashda* xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan kompleks chora-tadbirlar natijasida nodavlat tibbiyot muassasalari sonini yanada ko'paytirish hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik – bu, o'zaro tuzilgan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimi asosida xususiy investitsiyalar va (yoki) boshqaruv tajribasini jalb qilish hamda xatarlar va majburiyatlarni bo'lishish va (yoki) taqsimlash maqsadida, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida ijtimoiy va infratuzilmaviy

¹⁴ *Ma'lumot uchun*: kiber xavfsizlik sohasidagi milliy qonunchilikka quyidagilarni kiritish mumkin, O'zbekiston Respublikasining ЎПҚ-764-сон «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi qonuni, Қонунчилик палатаси томонидан 2022 йил 25 февралда қабул қилинган, Сенат томонидан 2022 йил 17 мартда маъқулланган// lex.uz.; O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 560-II-son «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni // lex.uz.; O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustda 822-I-son «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi qonuni// lex.uz.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 05 oktabrda PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // lex.uz.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 sentabrda PQ-4452-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni // lex.uz. va boshqalar. (Murojaat sanasi: 12.06.2024).

muammolarni hal etishga qaratilgan davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida muayyan muddatga huquqiy rasmiylashtirilgan o'zaro manfaatli hamkorlik¹⁵dir.

Xususiy tibbiyot muassasalarining aholi sog'lig'ini muhofaza qilishdagi hissasini oshirish, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etish asosida tibbiyot muassasalarida xavfsizlik choralari kuchaytirish, epidemiya yoki pandemiya holatlarida tezkor va samarali javob berish, xavfsizlik texnologiyalari va infratuzilmalarni yaxshilash institutsional va huquqiy mexanizmlarini yaratish masalasi hali-hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jamoat transporti tizimlarida xavfsizlikni ta'minlash, yo'llardagi xavfsizlik monitoringi, avtobus, poezd, metro va aeroportlarda xavfsizlik choralari ko'rish jamoat xavfsizligini ta'minlashning muhim sohalaridan biridir. Jarima maydonchalari normativlarini ishlab chiqish va belgilash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etilishini hisobga olgan holda ular faoliyatini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimiga joriy etish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning jahon standartlariga javob beradigan tizimini yaratish, tranzit, yo'lovchilar va yuk tashishni rivojlantirish, ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish qoidalar¹⁶ni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

So'nggi yillarda *yong'in xavfsizligini ta'minlash*, yong'inlar profilaktikasi sohasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, aholining maishiy hayotida va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yong'inlar bilan bog'liq noxush hodisalar ro'y bermoqda. Noxush hodisalarning yuzaga kelishi davlat yong'in nazorati bo'yicha qonunchilikda belgilangan mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining yong'in xavfsizligi madaniyatini oshirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohaga oid huquqiy normalar¹⁷ni takomillashtirish

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290-son qarori bilan tasdiqlangan "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida NIZOM" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 07/19/4290/2959-son; 19.02.2020-y., 07/20/4606/0176-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 13.07.2023-y., 06/23/109/0469-son. (Murojaat sanasi: 12.06.2024).

¹⁶ *Ma'lumot uchun*: davlat-xususiy sheriklik asosida *transport xavfsizligini ta'minlash* sohasidagi milliy qonunchilikka quyidagilarni kiritish mumkin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son.; "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 28-son, 645-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son, 04.04.2022-y., 07/22/190/0268-son.; Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son "O'zbekiston Respublikasi yo'l xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018-y., 09/18/377/1258-son, 04.06.2019-y., 09/19/457/3235-son; 07.05.2024-y., 09/24/266/0329-son. (Murojaat sanasi: 12.06.2024).

¹⁷ *Ma'lumot uchun*: davlat-xususiy sheriklik asosida *yong'in xavfsizligini ta'minlash* sohasidagi milliy qonunchilikka quyidagilarni kiritish mumkin, "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 10-apreldagi PF-5706-son hamda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023-yil 2-avgustdagi PF-125-son farmonlari // Lex.uz.; Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-noyabrdagi 615-son "Yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimi

zaruratini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, fikrimizcha, davlat xususiy sheriklik asosida yong'inga qarshi choralarni amalga oshirish, yong'in signalizatsiyasi tizimlarini o'rnatish va yangilash, yong'in xavfsizligi bo'yicha treninglar o'tkazish sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Vazirlar faqat davlat mablag'ini sarf qilmasdan, o'zlari ham tashabbus ko'rsatib, xususiy investitsiyalarni jalb qilishlari lozim. Masalan, davlat-xususiy sheriklik orqali qishloq, suv, o'rmon xo'jaliklari, transport sohalariga bemalol yiliga 1 milliard dollargacha sarmoya olib kelish mumkin"¹⁸. Darhaqiqat, ommaviy tadbirlar, sport musobaqalari, yarmarkalar va konsertlar kabi *jamoat joylarida xavfsizlik* choralari ko'rishda xususiy sektorni jalb etish muhim ahamiyatga egadir.

Davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat joylarida xavfsizlikni samarali ta'minlash uchun jamoat joylarida yuqori sifatli video kuzatuv tizimlarini o'rtatish orqali real vaqt rejimida holatlarni monitoring qilish amalga oshirib kelinmoqda. Biroq, yangi texnologik innovatsiyalarni qo'llash va raqamlashtirish bilan bog'liq muammolar mavjud. Bunda, davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikda ko'cha va bog'larda, shahar markazlarida xavfsizlikni kuzatish uchun va IoT (Internet of Things) datchiklari, yuzni tanish texnologiyalarini qo'llash, ko'ngilli patrul dasturlarini qo'llash, jamoat joylarida favqulodda hizmat tizimlarini tashkil qilish, tezkor signal berish inshootlarini o'rnatish jamoat joylarida xavfsizlikning yuqori darajada ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida *favqulodda vaziyatlarni oldini olish*, kuzatish va ularga munosabat ko'rsatish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda q vaziyatlar organlari tomonidan tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar uchun bir qator chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, OAVlari profilaktik chiqishlar, shaxsiy uyali aloqa vositalarida habar yuborish tizimi shular jumlasidandir.

Fikrimizcha, bunday chora tadbirlar yetarlicha samara bermaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 apreldagi 299-son "2015-2030-yillarda ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha senday hadli dasturi"ni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori¹⁹ qabul qilingan bo'lib, qaror bilan avariya-qutqaruv va boshqa maxsus mol-mulkni mahalliyashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish masalasi belgilangan. Davlat-xususiy sheriklik asosida favqulodda vaziyatlarni oldini olishda tabiiy ofatlarni, yer silkinishlarini va suv toshqinlarini kuzatish uchun GIS

joriy etilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Davlat yong'in nazorati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2013-yil 4-oktabrdagi 272-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2023-y., 09/23/615/0889-son. (Murojaat sanasi: 12.06.2024).

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://raqobat.gov.uz/>. (Murojaat sanasi: 12.06.2024).

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 apreldagi 299-son "2015-2030-yillarda ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha senday hadli dasturi"ni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2019-y., 09/19/299/2928-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 29.05.2023-y., 09/23/215/0299-son (Murojaat sanasi: 17.06.2024 y.)

texnologiyalarini qo'llash, xususiyl kompaniyalar bilan hamkorlikda qutqaruv xizmatlarini tashkil etish va ularga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, jamoat joylarida yong'inlar, suv toshqinlari va boshqa favqulodda vaziyatlar uchun tezkor ogohlantirish signal tizimlarini o'rnatish bilan bog'liq chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Bu jarayon jamoat xavfsizligini oshirish va favqulodda holatlarda tezkor javob berish imkonini yaratadi, shu bilan birga tezkor axborot almashinuvi va monitoring tizimlari xavflarni aniqlash va ularga nisbatan zarur choralarni ko'rishga yordam beradi.

Davlat-xususiyl sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohalaridan yana biri bu video kuzatuv va monitoring hamda jamoat tartibini saqlash, shuningdek, hududiy va mahalliy xavfsizlikni ta'minlash hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 sentabrdagi 588-son "Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinganligi muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiyl sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 7 dekabrdagi PQ-4913-son qarori ijrosi yuzasidan qabul qilingan.

Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiyl sektorni jalb etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" bilan barpo etilgan ayrim jamoatchilik nazorati maskanlarini eksperiment tariqasida videokameralar o'rnatish sharti bilan, tadbirkorlik sub'yektlariga ijaraga berib, ular negizida elektron kuzatuv maskanlari faoliyatini tashkil etish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-son Farmoniga muvofiq davlat-xususiyl sheriklik loyihalari va ijtimoiyl foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda yer uchastkalari davlat tashkilotiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi.

Farmonga muvofiq IIV, Milliy gvardiya, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining 2021 yil 1 oktyabrdan 2022 yil 1 oktyabrga qadar jamoatchilik nazorati maskanlari negizida elektron kuzatuv maskanlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha eksperiment o'tkazish to'g'risidagi taklifi ma'qullangan.

Farmon bilan, eksperiment tariqasida quyidagilar belgilangan:

➤ elektron kuzatuv maskanlari yer uchastkalarining 6 kvadrat metr maydonigacha joylashtiriladi. Maskanlar va ularning binolari atrofidagi yer uchastkalari eksperiment muddatidan qat'i nazar, besh yil muddatga ijaraga to'lovining "nol" stavkasi asosida ijaraga beriladi;

➤ ijaraga beruvchi - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ijaraga oluvchi - elektron kuzatuv maskanini tashkil etish uchun fuqarolar yig'inlarida barpo etilgan jamoatchilik nazorati maskanlarini belgilangan tartibda ijaraga olgan yuridik va jismoniy shaxslar hamda savdolar tashkilotchisi - "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi" DUK hisoblanadi;

➤ maskanlar ijara shartnomasi asosida beriladigan tadbirkorlik sub'yektlari "E-auksion" elektron savdo platformasida elektron tanlov o'tkazish orqali aniqlanadi;

➤ ijara shartnomasi muddati tugagandan so'ng maskanlarning binolari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga mulk huquqi asosida qoldiriladi, qolgan mol-mulk va jihozlar tadbirkorlik sub'yekti tomonidan erkin tasarruf etiladi va boshqalar²⁰.

Shu bilan bir qatorda, davlat-xususiy sheriklik asosida video kuzatuv va monitoring, jamoat tartibini saqlash hamda hududiy va mahalliy xavfsizlikni ta'minlash sohalarida kuzatuv kameralarini o'rnatish va ulardan foydalanish, jamoat joylarini monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish, xususiy qo'riqlash korxonalarining patrul xizmatlari, jamoat tartibini buzilish holatlariga tezkor javob berish amaliyotini joriy etish, mahalliy darajadagi xavfsizlik choralari amalga oshirish, mahalla va qishloq joylarida xavfsizlik infratuzilmasini yaxshilash, shuningdek, xususiy sektor tomonidan jamoat xavfsizligi bilan bog'liq ma'lumotlarni boshqarish va himoya qilish uchun texnologik yechimlar joriy etish kabilarni amalga oshirish jamoat xavfsizligi sohalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohalarini takomillashtirish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, kiber xavfsizlik sohasida xususiy sektor tomonidan taqdim etiladigan kiber xavfsizlik yechimlari va xizmatlar, ma'lumotlarning himoyasi va kiber hujumlarga qarshi choralarni tatbiq etish, aholi o'rtasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida yirik IT-korxonalarni jalb qilgan holda davlat xususiy sheriklik mexanizmlarini tashkil qilish;

ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida tibbiyot muassasalarida xavfsizlik choralari kuchaytirish, epidemiya yoki pandemiya holatlarida tezkor va samarali javob berish, xavfsizlik texnologiyalari va infratuzilmalarni yaxshilash bo'yicha institutsional va huquqiy mexanizmlarini yaratish;

uchinchidan, jarima maydonchalari normativlarini ishlab chiqish va belgilash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etilishini hisobga olgan holda ular faoliyatini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning jahon standartlariga javob beradigan tizimini yaratish, tranzit, yo'lovchilar va yuk tashishni rivojlantirish;

to'rtinchidan, davlat xususiy sheriklik asosida yong'inga qarshi signalizatsiyasi tizimlarini o'rnatish va yangilash, yong'in xavfsizligi bo'yicha treninglar o'tkazish;

beshinchidan, davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikda ko'cha va bog'larda, shahar markazlarida xavfsizlikni kuzatish uchun IoT (Internet of Things) datchiklari, yuzni tanish texnologiyalarini qo'llash, ko'ngilli patrul dasturlarini qo'llash;

oltinchidan, jamoat joylarida favqulodda hizmat tizimlarini tashkil qilish, tezkor signal berish inshootlarini o'rnatish;

²⁰ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/hususiy_sektor_mahallalarda_jamoat_tartibini_saqlaydi

yettinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida favqulodda vaziyatlarni oldini olishda tabiiy ofatlarni, yer silkinishlarini va suv toshqinlarini kuzatish uchun GIS texnologiyalarini qo'llash, xususiy kompaniyalar bilan hamkorlikda qutqaruv xizmatlarini tashkil etish va ularga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, jamoat joylarida yong'inlar, suv toshqinlari va boshqa favqulodda vaziyatlar uchun tezkor ogohlantirish signal tizimlarini o'rnatish;

sakkizinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida video kuzatuv va monitoring, jamoat tartibini saqlash hamda hududiy va mahalliy xavfsizlikni ta'minlash sohaslarida kuzatuv kameralarini o'rnatish va ulardan foydalanish, jamoat joylarini monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish, xususiy qo'riqlash korxonalarining patrul xizmatlari, jamoat tartibini buzilish holatlariga tezkor javob berish amaliyotini joriy etish, mahalliy darajadagi xavfsizlik choralarini amalga oshirish, mahalla va qishloq joylarida xavfsizlik infratuzilmasini yaxshilash;

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunda, Farmon bilan "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi nizom" loyihasini tasdiqlash hamda uning modelini quyidagi mazmunda berish lozim:

1-bob. Umumiy qoidalar;

2-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish tartibi;

3-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tender o'tkazish tartibi;

4-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihasi to'g'risidagi bitimni tuzish;

5-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihasi to'g'risidagi bitim tomonlarining huquq va majburiyatlari;

6-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim obyekti joylashgan va (yoki) faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yer uchastkalarini taqdim etish;

7-bob. Uzoq muddatga maqsadli foydalanish uchun jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlarining bino va inshootlarini yoki ularning qismlarini, xonalarini berish;

8-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida vakolatli organlarni zamonaviy texnologiyalar, asbob-uskuna va texnikalar bilan jihozlash;

9-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida vakolatli organlarni ishonchli boshqaruvga berish;

10-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi infratuzilmaga egalik huquqini berish tartibi;

11-bob. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish ustidan monitoring;

12-bob. Yakuniy qoidalar.

DXSh jamoat xavfsizligini ta'minlashda infratuzilmaviy va texnologik yangilanishni tezlashtirishi, servis sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishi mumkin.

Biroq amaliy barqarorlik uchun DXShning qo'llanish chegaralari aniq belgilanishi, davlatning eksklyuziv vakolatlari xususiy sherikka "delegatsiya" qilinmasligi, loyihalarning shartnomaviy dizayni esa risk va javobgarlikni muvozanatli taqsimlashi zarur. Sohaviy loyihalarda KPI/SLA ko'rsatkichlari orqali natijadorlikni huquqiy instrumentlar bilan mustahkamlash, davlat nazorati va auditini kuchaytirish, shaffoflik hamda korrupsiyaga qarshi komplaens talablarini majburiy standartga aylantirish, shuningdek shaxsiy ma'lumotlar va kiberxavfsizlik kafolatlarini qat'iy belgilash DXShning legitimligini va ijtimoiy ishonchini ta'minlaydi. Natijada, DXSh jamoat xavfsizligi tizimida "davlat kafolati — xususiy samaradorlik — fuqarolar huquqlarini himoya qilish" muvozanatini ta'minlaydigan institutsional model sifatida qaror topadi.